



ADABIYOT DARSLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Qanoatova Nazokat

University of Economics and pedagogy NOTM

Iqtisodiyot va pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Turg'unboyeva Xusnidabonu

University of Economics and pedagogy NOTM talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolamda maktabkarda adabiyot faning tarbiyaviy ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur, fan, texnika, ta'lim, zamonaviy, tarbiya, salohiyat, farzand, bilim, dars, adabiyot.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida islohotlar jarayoni jadal rivojlanmoqda. Yosh avlodga zamonaviy bilim, tarbiya berish, yuksak yutuqlarga erishish bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Mustaqillik yillarida "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016 - yil 12 - sentabrda imzolangan "Yoshlarga oid davlat siyosati" Qonuni qabul qilindi. Bu farzandlarimizning bilimli, salohiyatli bo'lib kamol topishlarida, zamonaviy bilimlarni chuqur egallashlarida o'z samarisini bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z asarlaridan birida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Shu o'rinda



hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi". "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanganidek, "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual me'rosi, umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida, kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir". O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyatyengilmas kuch» asarida adabiyotning inson hayotidagi o'рни va ahamiyatiga alohida to'xtalar ekan, jumladan, shunday deydi: «Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta». Farzand tarbiyasida adabiyotning ahamiyati juda muhim o'rin tutadi. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, ham tani, ham aqli sog'lom bo'ladi. Bu o'rinda maktabda adabiyot fanidan sinflarda berilayotgan mavzular ahamiyati katta. Ushbu mavzularning didaktik maqsadlarini o'quvchilarga ko'rsatib berish adabiyot fani o'qituvchilaridan talab etiladi. Adabiyot darsliklarida berilgan "Uch og'a-ini botirlar" ertagi, Antuan de Sent-Ekzyuperi «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagidagi mana bu parchalarga e'tibor qarataylik. "Uch og'aini botirlar" ertagi. "Qadim zamonda o'rtahol bir kishi yashagan ekan. Bu kishi o'g'illarini tarbiyalashda uch narsaga amal qiladi. Birinchidan, sog'lom qilib tarbiyalaydi, natijada o'g'illari baquvvat bo'lib o'sadi. Ikkinchidan, qurol-yarog' bilan tanishtiradi, natijada o'g'illari yarog' ishlatishga usta



bo‘lishadi. Uchinchi, qo‘rqitmay o‘stiradi, natijada o‘g‘illari botir, dovyurak bo‘lib voyaga yetishadi”. Yuqoridagi keltirilgan parchada sog‘lomlik – baquvvat bo‘lishning asosi, dovyuraklikning asosi esa farzandni qo‘rqitmay katta qilish ekanligini ko‘rsatib berilmoqda. Keyingi parchaga e‘tiborimizni qaratsak, “U o‘g‘illarini yanada mukammal bolishini istaydi. Shu sababli ularga yana uch narsani uqtiradi: «To‘g‘ri bo‘ling - bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang - xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang - baxtsiz bo‘lmaysiz».” Bu nasihat faqat botirlarga emas, har bir o‘quvchi amal qiladigan oltin qoidalarga aylanishi zarur. Ushbu ma’lumotlarni o‘quvchilarga axborot sifatida emas, balki uning mohiyatini anglatish, tahlil qilish, ongiga singdirish darsga qo‘yilgan asosiy talab bo‘lishi kerak. Nasihatlarining mohiyatini tushuntirish o‘quvchilarda maqtanchoqlik, yolg‘onchilik, dangasalik kabi illatlarni paydo bo‘lmasligiga olib keladi. Antuan de Sent-Ekzyuperi «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagidagi. «Kichkina shahzoda» deb nom qo‘yilgan bu bolaning aytishicha, uning sayyorasida “Baobab” deb nomlanadigan xavfli bir daraxt urug‘i nihoyatda ko‘p ekan. Shahzoda har tongni endigina urug‘dan chiqqan baobab ko‘chatlarini yulib, o‘z sayyorasini tozalash bilan boshlarkan”. Bu parchadagi Kichkina shahzoda – ezgulik , sayyora – inson qalbi , baobab –inson qalbidagi illatlar ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, har bir inson har tongda ishni qalbidagi illatlarga qarshi kurashishdan boshlashi ilgari suriladi. Adabiyot o‘qituvchilari shu kabi fikrlarni o‘quvchiga singdirib borishi talab etiladi. Biz bor-yo‘g‘i ikkita mavzudagi parchaga to‘xtaldik. Adabiyot darsligidagi har bir mavzu bu jihatdan juda qimmatlidir Bugungi kunda adabiyot darslari, afsuski, ma’lumot berish bilangina cheklanmoqda undagi mavzularni inson ruhiyati shakllanishidagi vazifasini to‘la ochib berish biz adabiyot fani o‘qituvchilari gardaniga tushgan vazifa ekanligini anglashimiz, o‘quvchilar “ruhining muhandisi” sifatida faoliyat yuritishimiz zamon talabi. Zero, Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda: “Adabiyot yashasa, millat yashaydi”.



Adabiyot – bu inson qalbi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiradigan eng kuchli tarbiya vositalaridan biridir. Ayniqsa, maktab ta’limi jarayonida o’tiladigan adabiyot darslari yosh avlodni ma’naviy yetuk, ezgulik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, adabiyot darslarining tarbiyaviy kuchi, unda aks ettirilgan badiiy obrazlar, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlar orqali o’quvchining ongiga bevosita ta’sir etishidadir. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarida ifodalangan muhabbat, milliy qadriyatga sadoqat, ijtimoiy adolat g’oyalari bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Shuningdek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi adiblarning asarlari orqali vatan tuyg’usi, ona tiliga hurmat, istiqloq qadri, insoniylik fazilatlari o’rgatiladi. Bu darslar nafaqat bilim beradi, balki yuraklarni tarbiyalaydi, yoshlarda ongli fikrlash, o’ziga va jamiyatga nisbatan mas’uliyat tuyg’usini shakllantiradi.

Adabiyot darslari – o’quvchini o’z millatini sevishga, tarixiy shaxslar faoliyatidan ibrat olishga undaydigan darslardir. Ularda o’qituvchilar har bir badiiy matn orqali axloqiy tarbiya, estetik zavq, ijodkorlikka qiziqishni uyg’otadi. Masalan, Alisher Navoiy g’azallaridagi ilohiy muhabbat, ezgulik va adolat g’oyalari o’quvchida komil inson bo’lishga intilish hissini uyg’otadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida faqat bilim emas, tarbiya ham birinchi o’ringa chiqayotgan bugungi kunda, aynan adabiyot darslari bu vazifani eng samarali tarzda bajaradi. Tarixdan ma’lumki, xalq ma’naviyati yuksak bo’lgan jamiyatlarda kuchli bo’ladi. Shunday ekan, adabiyot darslarini shunchaki matn tahlili emas, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ko’rish lozim.



Xulosa

Adabiyot darslari – bu shunchaki bilim berish vositasi emas, balki har bir o‘quvchining qalbini tarbiyalovchi, ongini yorituvchi ma’naviy maktabdir. Badiiy adabiyot insonning ruhiy olamiga ta’sir etadi, uning qalbida insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat, adolat kabi yuksak fazilatlarni shakllantiradi. Aynan shu jihatlari bilan adabiyot boshqa fanlardan ajralib turadi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli axborotlarga duch kelmoqda. Ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, fikrlash madaniyatini shakllantirish, ruhiy dunyosini boyitish – aynan adabiyot darslarining zimmasidagi muhim vazifadir. O‘quvchilar badiiy asarlar orqali hayotning qiyin va murakkab tomonlarini anglaydi, saboq oladi, o‘z hayotiga mezon yaratadi.

Adabiyot darslarining tarbiyaviy ahamiyatini chuqurroq anglash uchun o‘qituvchi har bir asarning g‘oyaviy-ma’naviy tomoniga alohida e’tibor qaratishi lozim. Har bir obraz, voqea, syujet o‘quvchining axloqiy dunyosiga bevosita ta’sir etishini unutmaslik kerak. Ana shundagina darslar samarali, tarbiyaviy jihatdan boy va mazmunli bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslari – bu ma’naviy poklanish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish, komil insonni tarbiyalash maktabidir. Bu darslar orqali biz yosh avlodga nafaqat bilim, balki ulug‘ insoniy qadriyatlarni ham singdiramiz. Farzandlarimizning ma’naviy boy, axloqan barkamol bo‘lib ulg‘ayishida adabiyot darslarining o‘rni beqiyosdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2020.
2. Vohidov E. Dil so'zlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2017.
3. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Qurbonov Sh., Jo'rayev M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Adabiyot" fani darsliklari (5–11-sinflar). – Toshkent: O'qituvchi, 2017–2022.
7. "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 2021-yil, 3-son.
8. To'xtaboyev X. Shaytanat, Qasoskor kabi asarlar orqali tarbiya masalalarini yoritgan maqolalar.